

## HOZIRGI KUNDA JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL MUAMMOLAR

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti, 4-  
bosqich talabasi Mamasaidova Mehrona Najmiddin qizi,*

*Maxmasaidova G'unchagul Sayfiddin qizi, Jobirov Doston*

*Email:mehronamamasaidova@gmail.com.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Jahon iqtisodiyoti duch kelayotgan asosiy muammolar biri tabiiy resurslarning tugab borayotgani va aholi sonini ko'payib ketayotgani haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, ushbu muammolarni bartaraf etish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qancha amaliy ishlar taklif qilingan*

**Kalit so'zlar:** *demografiya, energetika, resurs, nazoratsiz o'sish, degradatsiya.*

Bugungi kunga kelib ilm fan va texnika taraqqiyoti o'zining eng yuksak darajasiga erishdi. Shunga qaramay, insoniyat bir qancha global muammolarga duch kelmoqda. Jahonda aholi sonining tez sur'atlarda ko'payib, qayta tiklanmaydigan resurslarning esa kamayib borayotgani, oziq ovqat tanqisligi va natijada yuzaga kelayotgan qashshoqlik shular jumlasidandir. Demografik muammolar Insoniyat paydo bo'lganidan beri dunyo aholisi sonimuntazam o'sib borgan Bunday o'sish natijasida yuzaga keladigan muammolar qadimdan ko'pchilik olimlarni havotirga solgan demograflar, sotsiologlar, iqtisodchilar va geograflar shular jumlasidan Ayniqsa hozirgi kunda, aholi sonining nazoratsiz o'sishi va uning oqibatlari global muammoga aylandi. Dunyo aholisi (2020) yiliga 1,05% atrofida o'smoqda, bu taxminan 81 million kishi degani. Bu ko'rsatkich 1980 yillarning oxirida eng yuqori cho'qqisiga chiqqan va har yili qo'shimcha 90 million kishini tashkil etgan. Bundan buyon, BMT aholining

yillik o'sishi har yili 1 millionga kamayishini kutmoqda. Lekin, umumiy olganda kelasi 30 yillikda o'sish yuqori darajada saqlanib qoladi. Hozirda Yer yuzida 7,9 milliarddan ortiq odam yashaydi. Bu ko'rsatkich 1960 yillarda 3 milliardni, 1990 yillarda 5 milliardni va 2010 yillarda 6 milliardni tashkil qilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2100 yilga kelib aholi soni 10.8 milliardga yetishi kutilmoqda. Bunday o'sishga tibbiy bilimlarning yaxshilangani natijasida turli kasalliklarga davo topilganligi va o'rtacha umr ko'rish yoshi ortganligi, qishloq xo'jaligidagi taraqqiyot natijasida insoniyatni oziq-ovqat bilan ta'minlash osonlashgani aholida oilani rejalashtirish bo'yicha ta'limni yetishmasligi sabab bo'lmoqda. Biroq olimlarning ko'pgina fikricha, Yer sayyorasi ko'pi bilan 9 milliarddan 10 milliardgacha odamlarni tashiy oladi. Chunki, Yer ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan oziq-ovqat este'molga yaroqli suv va yashsh uchun joy miqdori chegaralangan.

Demografik bosim oziq ovqat va ekologik vaziyatni murakkablashtiradi. Muammolarning jiddiyligi faqatgina cheklangan resurslarda emas, balki ulardan. foydalanishning atrof muhitga salbiy ta'siri bilan ham bog'liq. Dunyo aholisi ko'paygani sari, iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ko'proq resurslar jalb qilinadi. Bu esa o'rmonlarning, yer osti va usti boyliklarining tanazzuliga sabab bo'ladi. Shuningdek, aholini haddan tashqari ko'payib ketishi ochlik, qashshoqlik, ichimlik suvi tanqisligi, atrof muhit degradatsiyasi va siyosiy beqarorlikni keltirib chiqaradi. Shu sababli, aholi soni o'sishini nazorat qilish hozirgi kunda global muammoga aylangan. Buning yechimi sifatida, odamlarni aholini haddan ortiq ko'payishi natijasida yuzaga keladigan dahshatli oqibatlardan xabardor qilish, ayollarning ta'limini rag'batlantirish oilani rejalashtirishni targ'ib qilish, turmush qurish yoshini kechiktirish, davlat tomonidan kam farzandli oilalarni rag'batlantirish kabi harakatlar ko'riladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayol qizlar ta'limini yaxshilanishining, ko'payish darajasini pasayishi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liqligi bor. Masalan, 1997 yilda Yamanda o'tkazilgan tadqiqot o'rta

maktabni tugatgan ayollar orasida tug'ilish darajasi 33 foizga kamayganini aniqladi . Shu kabi choralarni qo'llab aholini haddan oshiq ko'payishini hal qilish mumkin.

Tabiiy resurslardan biz kundalik faoliyat uchun energiya manbayi sifatida foydalanamiz. Ular qayta tiklanadigan va qayta tiklanmaydigan manbalarga bo'linadi. Ushbu ikki turdagi resurs o'rtasidagi farq shundaki, qayta tiklanadigan resurslar tabiiy ravishda o'zini to'ldirishi mumkin qayta tiklanmaydigan resurslar esa bunday xususiyatga ega emas. Bu shuni anglatadiki, qayta tiklanmaydigan resurslar ta'minoti cheklangan va barqaror foydalanish mumkin emas Qayta tiklanmaydigan manbalarning to'rtta asosiy turi mavjud: neft, tabiiy gaz, ko'mir va atom energiyasi. Ular tobora kamayib bormoqda. Bu insoniyat uchun katta muammodir, chunki qayta tiklanmaydigan manbalar dunyo bo'ylab energiya iste'molining 85% ini tashkil qiladi va biz hozirda energiya ehtiyojlarimizning ko'p qismini ta'minlash uchun ularga muhtojmiz. So'nggi 70 yil ichida rivojlanayotgan mamlakatlar soni va texnologiyadagi innovatsiyalar tufayli global energiya iste'moli olti barobarga oshdi. Kelgusi 30 yil ichida u yana uch barobar ko'payishi prognoz qilinmoqda.

Ayni paytda tabiiy gaz, neft va ko'mir ishlab chiqarish va ulardan foydalanish muntazam o'sib borayotgan bo'lsada, zahiralarning tugashi 50-100 yildan so'ng, dolzarb muammoga aylanadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, ko'mir zahiralari yana taxminan 120 yilga, neft va gaz zahiralari esa 70 yilga yetishi mumkin. Shunga qaramay bu raqamlar faqat statistikaga asoslangan taxminlar xolos. Ular vaqt o'tishi bilan o'zgaradi, chunki ushbu yoqilg'i manbalarining qazib olinishi va iste'moli ko'payishi yoki kamayishi mumkin. Yoqilg'i zahiralarning asosiy muammosi faqat ularning cheklangan ta'minoti emas, shu bilan birga iqlim o'zgarishiga ta'siridir. Ularni yoqish atmosferaga karbonat angidrid chiqaradi. Atmosferadagi issiqlikni ushlab turuvchi karbonat angidrid miqdorining oshishi global isishning asosiy sababidir. Agar dunyo hozirda ma'lum bo'lgan barcha yoqilg'i manablarini yoqib yuborsa,

atmosfera jami 750 milliard tonna karbonat angidrid chiqadi. Shu sababli, global haroratniko'tarilishini past darajada ushlab turishni istasak, hozirgi ma'lum zahiralarning 65-80 foizini Yerda qoldirishimiz kerak. Qayta tiklanmaydigan manbalarning ya'ni tabiiy gaz, neft va ko'mir iste'molini kamaytirish uchun muqobil energiya manbalaridan foydalanishimiz kerak, masalan, shamol va quyosh energiyasi. Bu ikkala energiya manbalari ham cheksiz miqdorda mavjud va ulardan foydalanish atmosfera zarari yetkazmaydi.

**Xulosa** qilib shuni aytish mumkinki, aholi o'sishini cheklash, atrof muhitni muhofaza qilish va qashshoqlikka qarshi kurash uchun qat'iy choralar ko'rish kerak. Bularni avvalo, aholi sonini haddan ortiq ko'payishini oldini olishdan boshlash kerak. Chunki, aholining haddan tashqari ko'payishi butun ekologik tizimga jiddiy tahdiddir. Ko'p aholi, ekologiyani ifloslanishiga, ko'p resurslar sarflanishiga va oxir oqibat tabiiy zaxiralarni tugashiga olib keladi, natijada turli kasalliklar ko'payadi. Shuning uchun biz bu muammolarni hal qilish uchun tegishli choralarini ko'rishimiz juda muhimdir. Shundagina insoniyat kelajakda tinch - totuv yashashi mumkin bo'ladi.

#### **ADABIYOTLAR**

1. B.D. Xajiev, K.K. Mambetjanov. Экономическая теория: учебник 2021
2. B.D. Xajiev, M.K. Abdullaeva, F.O. Otabaev. Глобальное экономическое развитие: учебное пособие. 2017.
3. Farida Aymatova va Nargiza Aytiniyazova. Экономическое образование молодёжи — основа будущего страны. 2016